




IMOM BUXORIY
XALQARO ILMIY-
TADQIQOT MARKAZI



O'ZBEKISTONDAGI
ISLOM SIVILIZATSİYASI
MARKAZI



Bahouddin Naqshband

(1318-1389)

“Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning beba ho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak”.

Shavkat MIRZIYOYEV


BAHOUDDIN NAQSHBAND – QALBLARNI JIOLAGAN VALIY

To‘liq ismi – Bahouddin Muhammad ibn Muhammad Jaloliddin bo‘lib, el orasida Bahouddin Balogardon, Shoh Naqshband, Xojayi Buzurg (Ulug‘xoja) kabi sharaflı nomlar bilan tanilgan.


Bahouddin Naqshband 1318-yili Buxoro yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog‘ida tug‘ilib, 1389-yili shu yerda vafot etgan.

Otasi to‘quvchi bo‘lgan. So‘fiylar bilan yaqin aloqada bo‘lgan bobosi Sayyid Burhonuddin nabirasida islom ilmlariga katta qiziqish uyg‘otgan.

Bahouddin Naqshbandning birinchi ustozи Xoja



Muhammad Bobo Samosiydir. Bahouddin uch kunlik go'dak bo'lganida, ustozi uni ma'naviy farzandim deb qabul qiladi. Xoja Muhammad Bobo Samosiy Bahouddin tufayli Qasri Hinduvon qishlog'i Qasri Orifonga aylanishini aytadi. Bahouddin ustozidan ta'lim-tarbiya oilb, uning ko'rsatmasi bilan tasavvuf ta'limini Sayyid Amir Kulol qo'lida davom ettiradi.



ILMIY FAOLIYATI

Bahouddin Naqshband yetti yil davomida Amir Kulolning huzurida bo‘lgan. Hali kamolga yetmay turib, ustozining roziliginini olgan. Bir kuni Buxorodagi qabrlarni ziyorat qilar ekan, yaqinda vafot etgan Samosiyidan G‘ijduvoniya qadar yetib kelgan so‘fiylarning ruhiy olamini mushohada qiladi, ma’nana bilan bog‘lanadi.

Bahouddinning ma’naviy ustozi bo‘lgan Abduxoliq G‘ijduvoniy unga “Barcha holatda ham qadaming amru nahiyl ko‘chasida bo‘lsin, sunnatni hamisha joyiga qo‘yishga intilgin, bid’atlardan uzoq bo‘lgin, Muhammad sollallohu alayhi vasallamning hadis-



larini o'zingga peshvo qilib olgin, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni, u kishining ulug' sahabari xabarlarini izlovchi va o'rganuvchi bo'lgin!" deb maslahat bergen. Ushbu voqeа Bahouddinning ma'naviy hayotida katta o'zgarishlar hosil qilgan.

Bahouddin kamolga yetgach, Amir Kulol o'zi tug'ilgan Suxari qishlog'ida qurilayotgan masjidga g'isht tashiyotgan shogirdini chaqirib, "Ey farzand! Xoja Muhammad Bobo Samosiy sening to'g'ringda qilgan vasiyatini to'liq bajo keltirdim. U zot menga degan ediki, "Men seni qanday tarbiyat etgan bo'lsam, farzandim Bahouddinni ham xuddi shunday parvarish qilgaysen va shafqatni darig' tutmagaysen". Har neki dedilar, ado etdim. Endi senga ijozat, qayerdaki dimog'ingga bir xush hid yetsa, ilmda kamchilikka yo'l qo'yma! Ya'ni, ulug' avliyolar makoni xushbo'yligi bilan alomat ko'rsatadi, shunday joyni topsang, ilm talabini aslo qisqartirmagin".

Shundan so'ng Xoja Bahouddin ustozining yana bir shogirdi Mavlono Orif Deggaroniydan yetti yil ta'lim-tarbiya oladi. Bahouddin Mavlonodan hadis ilmini quint bilan o'rghanadi. Keyinchalik esa Naxshab (hozirgi Qarshi) shahriga boradi va yassaviylik tariqatiga mansub ikki shayx – Qusam shayx va Xalil ota bilan aloqa o'rnatadi. Qusam shayxdan uch oy ta'lim oladi. Xalil otaning yonida esa o'n ikki yil qoladi.

Bahouddin Naqshband ota kasbi – matoga naqsh

solist bilan shug‘ullangan va keyinchalik kishilar qalbini ma’nan jilolagani, ya’ni insonlarni kamolga yetish yo‘liga boshlagani uchun Shoh Naqshband degan nom bilan shuhrat qozongan.

Sayyid Amir Kulol o‘lim to‘sagida yotganida, barcha shogirdlarini yig‘ib, bundan buyon Hazrat Bahouddinga itoat etishni tayinlaydi. Shundan so‘ng Bahouddin tug‘ilgan joyi – Qasri Hinduvonga qaytib kelib, shogird tarbiyalashga kirishadi. Bahouddinning birinchi shogirdi – Alouddin Attor, ikkinchisi – Xoja Muhammad Porso, Xoja Alouddin G‘ijduvoni esa uchinchi shogirdi hisoblanadi. Umuman, uning qo‘lida o’n mingdan ortiq tasavvuf namoyandasini ta’lim oladi.

Bahouddin ikki marta haj qilgan. Ikkinci haj safarida hirolik Zayniddin Toyobodiy bilan ko‘rishgan. Bu uchrashuv Hirot ahlida katta taassurot qoldirgan. Shu sababli hukmdor Malik Husaynning ham Bahouddinga hurmat va ixlosi kuchaygan. U allomani yana bu muazzam shaharga taklif qilgan. Bahouddin bu tashrif davomida hukmdorga tasavvuf va tariqat tamoyillarini o‘rgatgan.




ILMIY-MA'NAVIY MEROXI

Bahouddinning ma'naviy kamoloti Buxoroning butun Markaziy Osiyo musulmonlari uchun muqaddas ilmiy-ma'naviy markazga aylanishida muhim omil bo'ldi.

Bahouddin Naqshband o'z ta'limotini yaratishda Yusuf Hamadoniy va Abduxoliq G'ijduvoniylariga tayangan. Ular asoslagan sakkiz tamoyilga yana uchta qo'shib, o'n bitta tamoyilni amaliyatga joriy etgan.

Ularning birinchisi – “Vuqufi zamoniy” (“Zamona vaqtadan ogohlilik”)ga ko'ra, inson o'zi yashayotgan davr, zamon qanday kechayotganidan, undagi barcha muhim jarayonlardan ogoh bo'lib bormog'i zarur. Umrni xayrli, ezgu ishlarga sarf etishi lozim. G'aflatda qolmaslik hushyorlikni, daxldorlikni anglatadi.



“Vuqufi adadiy” (“Son-adaddan ogohlik”) tamoyili negizida ikki tushuncha – kasrat (ko‘plik) va vahdat (yagonalik) yotadi. Olamga nazar solganda borliqdagi barcha narsalar rang-barang va turlituman ko‘rinsa-da, ularning asl mohiyati bittadir. Ya’ni, ularning barchasi yaratilgan bo‘lib, yaratuvchi yolg‘iz Allohdir.

Naqshband joriy etgan uchinchi qo‘sishimcha “Vuqufi qalbiy” (“Qalbdan ogohlik”)ni nazarda tutadi. Qalb insonning jismi va ruhini bir-biri bilan bog‘lab turuvchi markazdir. Unda naqshlangan narsa xotirada muhrlanadi. Uning holati insonning

butun jism-u tani va ruhiyatidagi kechinmalarni aks ettiradi. Shuning uchun qalbni pok tutish, uni tashqi ta'sirlardan asrash zarur. Qalbda faqat butun borliqqa mehr-shafqat va muhabbat, ezgu niyatlar mujassam bo'lishi lozim. U kibr, hasad, g'azab, araz, nafrat kabi illatlardan xoli bo'lmog'i kerak.

Bahouddin Naqshband tasavvufda amalda bo'lgan qattiq talablarni bir qadar yumshatib, mo'tadillashtirdi, kundalik turmushga mosladi. Uningcha, Allohga intilish ko'ngil amri va rizosi bilan amalga oshishi kerak. Qo'l esa mehnat bilan band bo'laversin. Bahouddin Naqshbandning tarki-dunyolik qilmay, bu dunyo ishlaridan ochiq-oshkor voz kechmay turib ham Alloh vasliga yetishish mumkinligi haqidagi g'oyasi tasavvufning oddiy odamlar orasiga kirib borishini ta'minladi.

Allomaning naqshbandiylik ta'limoti Qur'oni karim va hadisi sharif asosida shakllangan. Tariqat pirlarining asosiy maqsadi – Payg'ambar alayhissalomning sunnatlarini mustahkamlash, vazifasi – bid'at va xurofotga qarshi kurashish.

Qalb mudom Allohnинг nazarida bo'ladi. Haq taoloning nazargohi hisoblangan qalbni pokiza tutish naqshbandiylik ta'limotining asl muddaosidir.

Ma'rifikatni keng ma'noda tushuntirib, ruhiy kamolotning asosiy maqsadi ma'rifikatli bo'lishdir, deb ta'kidlaydi Bahouddin. "Tavhidga yetish oson,

lekin ma'rifatli bo'lish og'ir, bunga faqat murshidustozlar rahnamoligi orqaligina yetishish mumkin".

Hazrat Bahouddinning "Hayotnama", "Dalilul oshiqin" ("Oshiqlar dalili"), "Avrod" ("Vazifalar") kabi o'nga yaqin asari va bir qator ruboiylari shogirdlari orqali bizgacha yetib kelgan.

"Avrod"da Allah taoloning ism va sifatlari sharhlangan. Bu bilan Bahouddin insonni o'z aslini bilib, chiroyli axloq sohibi bo'lishga chaqiradi. Asarda Allohning ismlari asosidagi munojotlar keltirilgan.

Bahouddin inson ma'rifatli bo'lishi, o'zini anglash, o'rganish uchun avvalo nafsini boshqara olishi, bor kuch-quvvatini ilohiy ishq yo'lida sarflashi, butun vujudini idora etib, uni ruhiy kamolot uchun safarbar qilishi kerakligini ta'kidlaydi. Yerdan yaxshi hosil olish uchun uni barcha begona o'tlardan tozalab, keyin urug' sepilgani kabi botinni poklab, so'ng zikr urug'ini sepish kerakligini tushuntiradi. Shuningdek, inson ma'rifatli bo'lishda nafsga qarshi sabr fazilatini o'ziga singdirishi kerak. Bu jarayonda halol luqma va hushyorlikka alohida e'tibor berib, qo'l mehnati bilan hayot kechirishni kundalik odatga aylantirishi lozim.

Naqshbandiylik xojalikni emas, mehnatkashlikni targ'ib qilgani jihatidan ham o'z davri uchun ulkan ijtimoiy hodisa edi. Bu tariqatda jahonning

ana shunday eng muhim ijtimoiy muammosi - mehnatga va uning natijasida erishiladigan boylikka munosabat masalasiga jiddiy e'tibor beriladi. "Dil ba yor-u dast ba kor!", ya'ni "Ko'ngling doim Allohda bo'lsin, qo'ling esa ishda" shiori kishining mehnat qilib turib ham tasavvuf bilan mashg'ul bo'lishi mumkinligini isbotladi. Agar har kim o'z mehnati bilan tirikchilik qilsa, boylikka faqat mehnati orqaligina ega bo'lishga intilsa, bu dunyoda nohaqlik yuz bermaydi, ijtimoiyadolat tantana qiladi.

Bahouddin Naqshband amal qilgan "Dil ba yor-u dast ba kor" shiori kishini ham ma'naviy yuksaltirishga xizmat qiladi, ham jamiyatda bahamjihat yashab, o'zaro yordam berish, mehnat, bunyodkorlik bilan yurtni obod qilishga safarbar etadi.



Buxoroda Yetti pir nomi bilan atalgan allomalar Payg‘ambar Muhammad sollallohu alayhi vassallam-dan boshlangan “oltin silsila”ning davomchilari sifatida e’tirof etilgan. Ular ko’ngilni badnafsliz va hirsdan poklash, halol mehnat qilib hayot kechirish, Allohga muhabbat g‘oyalarini targ‘ib qilgan. Ushbu aziz-avliyolarning asarlari, qilgan ishlari zamonlar osha odamlarni tarbiyalab, ularga din-u diyonat, odob-axloq, ezgu so‘z va shunga yarasha go‘zal amaldan saboq berib kelmoqda.

Hazrat Bahouddin Naqshbandning ziyyaratgohini obod qilishda temuriylardan mang‘it amirlarigacha ko‘plab hukmdorlar qatnashgan. Bugungacha saqlanib qolgan xonaqoh Shayboniyilar sulolasi vakili Ubaydullaxonning o‘g‘li Abdulazizzon tomonidan 1544-1545-yillarda qurilgan. Hazratning maqbarasi atrofida masjid, hovuz, quduq, minora, darvozaxona bor.

Bahouddin Naqshband vafotidan keyin naqshbandiylik tariqati keng yoyildi. Xoja Ahror Valiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Maxdumi A’zam Dahbediy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, So‘fi Ollohyor kabi buyuk mutafakkirlar ham shu tariqat vakillari bo‘lgan. Ular ijodida

naqshbandiylik g'oyalari keng targ'ib etilgan.

Allomaning ta'limoti asosida Movarounnahrda ahroriya va dahbediya, Hindistonda mujaddidiya, Turkiyada xolidiya kabi naqshbandiylik tarmoqlari shakllangan.

Bahouddin Naqshband sharofati bilan u tug'ilgan Qasri Hinduvon qishlog'i ilm-ma'rifat markaziga aylanib, Qasri Orifon deb atala boshlagan. Alloma mangu qo'nim topgan maskan bugungi kunda Buxorodagi Yetti pir ziyoratgohlarining biridir.

Bahouddin Naqshbandning Bibicha Xotun Kalon, Bibicha Robiya Xotun va Bibicha Sarvar ismli qizlari bo'lgan. Ularning avlodlari orasidan Xoja Yusuf Attor singari tasavvufning atoqli namoyandalari yetishib chiqqan.

Bahouddin Naqshband va uning ta'limoti millati, irqi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, har bir insonga va, umuman, butun borliqqa muhabbat bilan qarashni o'rgatadi. Bunday munosabatga asoslangan jamiyatda albatta tinchlik-xotirjamlik barqaror bo'ladi, farovonlik hukm suradi.



BAHOUDDIN NAQSHBAND HIKMATLARI

Hech narsamiz yo‘g‘u hech narsa ham kam emas,
Hech narsaning yo‘qligi bizga vale g‘am emas.
Jandamiz yelkamizda, oldimizda go‘riston,
Agar o‘lsak nogahon, bizga hech motam emas.

Shamga o‘xshagin, toki hammaga ravshanlik
bag‘ishla, o‘zing esa qorong‘ida bo‘l!

Sabr va chidamda nog‘ora kabi bo‘lmoq lozimki, u
qanchalik shapaloq yemasin, biroq o‘z odatiga xilof
ovoz chiqarmaydi.

Agar ilm izlash uchun yubormasalar, hech qachon
sayohat qilma.


Hech bir luqmani g‘aflat bilan yema.

Mag‘iz po‘stning himoyasida bo‘ladi. Agar po‘stga
nuqson yetsa, bu mag‘izga ham ta’sir qiladi. Agar
shariatda nuqson bo‘lsa, tariqatga nuqson yetadi.

Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy




Xoja Ali Romitaniy



Xoja Muhammad Bobo Samosiy




Xoja Orif Revgariy




Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy



Sayyid Amir Kulol



Bahouddin Naqshband





Bahouddin Naqshband ziyoratgohi



IMOM BU xoriy
XALQARO ILMIY-
TADQIQOT MARKAZI



O'ZBEKISTONDAGI
ISLOM SIVILIZATSİYASI
MARKAZI

Nashr uchun mas'ul: Mehrojiddin AMONOV
G'oya mualliflari: Shahzod ISLOMOV, Shovosil ZIYODOV
Mas'ul muharrir: Otabek MUHAMMADIYEV

Muharrir: Anvar BOBOYEV
Musahhih: Husan NISHONOV
Dizayner: Muhammadiqbol SHUKUROV